



**“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA QADIMGI TURKIY TIL, ESKI
TURKIY TIL VA ESKI O‘ZBEK ADABIY TILI DAVRIDAGI LEKSIK
XUSUSIYATLARINING AKS ETISHI**

Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni leksikasida qo‘llangan eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili hamda hozirgi o‘zbek adabiy tili davriga xos xususiyatlarning o‘ziga xosligi yoritib berildi. Bundan tashqari o‘zbek tili taraqqiyotining turli davrlaridagi leksema va morfemalarning Navoiy asarlarida faol qo‘llanganligi ko‘rsatildi. Ayniqsa, eski o‘zbek adabiy tili Navoiy davrida, uning qimmatli va betakror asarlarida o‘z rivojining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilganligi yaqqol ochib berilgan. Navoiy asarlari nafaqat o‘sha va keyingi davrlar o‘zbek adabiy tilining asoschisi, balki tadqiqotchisi ekanligi tadqiq qilindi. Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida eski turkiy tildagi so‘zlarning mahurat bilan ishlatilishi, yana boshqa o‘rinlarda esa shu so‘zlarning eski o‘zbek tilidagi ma‘nolari o‘ziga xos jozibadorlik bilan qo‘llanganligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili, “Hayrat ul-abror”, leksik-semantik xususiyat, Chig‘atoy tili, semantik o‘zgarishlar, qiyoslash.

Eski o‘zbek tili Alisher Navoiy davrida, uning asarlarida o‘z rivojining eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarildi. Shoir o‘zining o‘nlab nazmiy va nasriy asarlari bilan bu tilni kamolotga yetkazdi, uni mamlakat tili darajasiga olib chiqardi. U nafaqat o‘sha va keyingi davrlar o‘zbek adabiy tilining asoschisi, rivojlantiruvchisi, balki tadqiqotchisi hamdir. Navoiy o‘zining “Hayrat ul-abror” asarida eski o‘zbek tili (turkiy)ni eng nozik jihatlari asosida uning fonetik, leksik va grammatik sohalarda rivojlangan til ekanligini nazariy jihatdan asoslab, ko‘rsatib beradi. Navoiyning nasriy asarlaridan tilining ancha soddaligi, jonli tilga yaqinligi bilan, hatto hozirgi davr o‘zbek adabiy tiliga ham mutanosub. Alisher Navoiydan keyin yaratilgan nasriy asarlar va ayrim dostonlarda eski o‘zbek tilining an‘anaviy me‘yorlaridan biroz uzoqlashish, uni xalq tiliga yaqinlashtirish tamoyili kuzatiladi. Ko‘plab she‘riy asarlarda, g‘azallarda esa eski o‘zbek adabiy tili an‘analari davom etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari eski o‘zbek adabiy tilidan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘tish bosqichi sanaladi. Bu til sho‘ro davrida standart o‘zbek tili bilan almashtirilgunga qadar adabiy til sifatida ishlatilgan. Masalan, 1922-yilda Toshkentda eski o‘zbek adabiy tilida jadidlarning „Haqiqat“ jurnali nashr etilgan.¹

Eski o‘zbek adabiy tili ancha keng hududga yoyilib, uning barqarorlashgan me‘yorlari asosida yozuvchi va shoirlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha ijod qilib

¹Бабаджанов Б. М., Коматцу Х. Журнал «Haqiqat» как зеркало религиозного аспекта в идеологии джаидов (русский) // TIAS Central Eurasian Research Series. — 2007. — Andoza:Бокор. — ISBN 978-4-904039-02-1.



keldilar. Shu jumladan Alisher Navoiyning “Hayrat ul- abror” asarida ham yuqorida aytib o‘tilgan o‘zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlarida faol qo‘llangan leksemalardan unumli foydalanganini ko‘rishimiz mumkin.

“Hayrat ul-abror”dagi turkiy leksika voqelikni, muallif fikri, tasvvuri, dunyoqarashi, qiziqishlari, orzu-armonlarini aks ettirishga xizmat qilgan. So‘zning ifoda semalarini badiiy uslubda maqsadga muvofiq aks ettirish ijodkorning tafakkur darajasi, badiiy mahorati bilan belgilanadi.

“Hayrat ul-abror”da o‘zbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili davridagi leksik xususiyatlari aks etgan. Asardagi turkiy leksika ikki jihatdan yoritildi: 1.Turkiy so‘zlarning qadimgi turkiy tilga² munosabati. 2.Turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati.

XV asming leksik xususiyatlari aks etgan nomalarda qadimgi turkiy tilga mansub bir qator so‘zlarning mavjudligi kuzatiladi.³ Navoiy asarlarida 1400 ga yaqin qadimgi va eski turkiy til so‘zlari qo‘llangan.⁴ Eski turkiy til va eski o‘zbek tili harbiy leksikasining semantik-funksional, tarixiy-etimologik, struktur- grammatik tahlili ko‘pgina harbiy terminlar XIV-XV asrda arabcha, forscha- tojikcha, ayniqsa, mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar bilan ifodalana boshlaganini ko‘rsatsa- da, eski o‘zbek adabiy tili harbiy leksikasi asosini qadimgi turkiy so‘zlar tashkil etgan. Eski o‘zbek tili manbalariga doir tadqiqotlar ham shu fikrni tasdiqlaydi. XI- XIV asrlarda yaratilgan qo‘lyozma manbalar tilida iste‘mol qilingan 700ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminlarning 640dan ortig‘i Navoiy asarlarida kuzatilishi ta‘kidlangan. Qadimgi turkiy til olmoshlari ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan to‘la holda eski o‘zbek adabiy tilida saqlangan. Qadimgi turkiy til so‘zlarining aksariyati eski o‘zbek adabiy tili davrida, asosan, hech qanday o‘zgarishlarsiz, ayrimlari fonetik yoki semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangan.

1. Qadimgi turkiy til davriga xos ma‘nolarda qo‘llangan so‘zlar. “Hayrat ul-abror” leksikasidagi turkiy leksikaning asosini qadimgi turkiy tilga xos ma‘nolarda qo‘llangan so‘zlar tashkil etadi. Masalan:

Narsa-hodisa nomlari, mavhum otlarning aksariyat qismi semantik o‘zgarishlarsiz ishlatilgan: tuz “dala”, “dasht”, “sahro“, “cho‘l“: ...cherigi va Nosavob xayoli tuz chiqmasa, shirkati yo‘qlarg‘a itob va balki xabari yo‘qlarga aroda azob.

Belgi bildiruvchi so‘zlar ham qadimgi turkiy til davriga xos tushunchalarni anglatgan: bo‘rtog‘ “past-baland yer, o‘ngqir-cho‘ngqir” Navoiy asarlarida ham ikki

² Qiyoslashda, asosan, DTSga tayanilgani bois, ayrim eski turkiy til davri manbalariga nisbatan ham qadimgi turkiy til termini qo‘llandi.

³ Jumayev A. XV asr o‘zbek nomalarida qadimgi turkiy so‘zlarning qo‘llanishi // O‘zbek tili va adabiyoti.- 1991. - №5. -B. 47-49.

⁴Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (struktur-grammatik, funksional-semantikaspektlarda). Filol. fan. nom... diss.-2007.



o‘rinda izohlangan: bo‘rtoq “pastu baland, notekis, buzuq” (ANATIL,I,337), bo‘rtog‘ “notekis, mashaqqatli” (ANATIL,1,347). Boshqa-boshqa birlik sifatida izohlangan bu so‘z shakllar ma’nosiga ko‘ra bir so‘z hisoblanadi.

2.Semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangan turkiy so‘zlar.

Asarda bir qator so‘zlarning semantik strukturasi ayrim semalarning iste‘moldan chiqishi kuzatiladi. So‘zning semantik tarkibidagi muayyan semalar eski o‘zbek tili davriga qadar iste‘moldan chiqqan. Bunday so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davrida qo‘llangan qadimgi turkiy so‘zlarning asosini tashkil etadi. So‘zlar semantik strukturasi ma’no torayishi hodisasini, ya’ni muayyan semalarning iste‘moldan chiqish jarayonini quyidagi misollar orqali kuzatish mumkin. M., “*aralashtirmoq*”, “*qo‘shmoq*” (DLL,1,382), “*aralashmoq*”, “*qo‘shilmoq*” ma’nolaridagi *qat-* fe’lidan yasalgan *qotil-* so‘zi hozirda ishlatilmaydi. *Qotil-* Navoiy asarlarida ham “*qo‘shilmoq*”, “*aralashmoq*” ma’nolarida qo‘llangan (ANATIL,IV,68). *Qotil-* “Mahbub-ul qulub”da quyidagi ma’nolarda kelgan: a) “*birlashmoq*”. *ahli dillar ko‘ngli bu ishq shu‘lasi nuridin va ul shu‘la nuri sururidin ayrulmasunlar va riyoyi zuhd xaylig‘a qotilmasunlar*’, b) *qo‘shilmoq* ma’nosida: *Oldurg‘ondin so‘ngra ul sayd boshi ustida tutib o‘run, qoni to‘lg‘on zabunni bismil qilmasdin burun, ne deyki qanotin suvurib, qo‘ltig‘inmu yoradur va o‘zi ul qotil shogirdin shaaf bila to‘yg‘oradur. Qotil-* so‘zining vazifaviy (harakat nomi) shakli metonimik ma’no ko‘chishi natijasida “*suvning qo‘shilish joyi*” tushunchasini bildirib kelgan: Ammo “*ishtirok etmoq (biror nimada)*”, “*ma‘qullamoq*”, “*qo‘llab-quvvatlamoq*”, “*tan olmoq*” ma’nolari (DTS,435) kuzatilmaydi. Qayd etilgan semalar eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib iste‘moldan chiqqan. So‘zning semantik strukturasi ma’no torayishi yuz bergan.

“Hayrat ul-abror”dagi turkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tili davridagi iste‘mol darajasiga ko‘ra quyidagicha ajratildi:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan turkiy so‘zlar.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan turkiy so‘zlar.

1.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan turkiy so‘zlar ikkiga ajratildi:

- 1) semantik jihatdan o‘zgarishsiz qo‘llanadigan so‘zlar;
- 2) semantik strukturasi o‘zgarish yuz bergan so‘zlar.

Semantik jihatdan o‘zgarishsiz qo‘llanadigan so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga xos ma’nolarni ifodalaydi. Bunday so‘zlar ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi. Harakat-holat (kelmoq, bormoq,ko‘rushmoq, otlanmoq, yubormoq); belgi bildiruvchi (yaxshi, yomon, keng), narsa-buyum otlari (to‘n, chodir), ayrim shaxs otlari (elchi, singil), hayvon nomlari (oq bo‘zak, qilquyruq), olmoshlar (men, sen, ul, anga, mundoq), frazemalar (qo‘l ko‘tarmoq, og‘iz ochmoq) shular jumlasidandir.



Semantik strukturasida o'zgarish yuz bergan so'zlar semantik o'zgarish xarakteriga ko'ra: a) mustaqil, lug'aviy ma'nosini saqlagan, semalar ko'lamida torayish yuzaga kelgan so'zlar;

b) mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotgan (hozirgi o'zbek adabiy tilida mustaqil qo'llanmaydigan) so'zlarga ajratildi.

Abtahi- *abtahli*; qumloq va toshloq vodiylil (Muhammad payg'ambarga berilgan nisba): *Barchasining a'zamiy-u afsaxi*,

Anglaki kelmish nabiyi Abtahi. *Hayrat ul-abror, 7-105*

Avvaliyat – ilgarilik, azaliylik: Avvalgi munojot ; *Haqning avvaliyatida kim hirad anga soniy bilmas.* *Hayrat ul-abror, 7-18*

Alisher Navoiy barchamiz uchun buyuk tilshunos hamda mislsiz badiiy mahurat egasidir. Navoiy xalqimiz ma'naviy hayotida yuksak ahamiyatga ega. U turkiy xalqlar uchun yagona hisoblangan turkiy adabiy til asoslarini, uning adabiy janrlarini, poetikasi qobiliyatlarini bir sistema holiga keltirib, mukammal adabiy til namunasini yaratib berdi. So'z san'atini yuksaklikka olib chiqib, lug'at boyligining keng ko'lamli ekanligini, rang-barangligi bilan ham, turkiy o'zlashma so'zlarning boyligi bilan ham bebaho bo'lmish turkiy adabiyotni va turkiy tilshunoslikni taqdim etdi. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Navoiy turkiy tilga bo'lgan e'tiborning oshishida muhim ahamiyat kasb etdi. Nafaqat, turkiy tillar mavqeyini, balki turkiy xalqlar madaniyati va qadriyatlarini yuksaltirdi. U turk tilida ko'plab izlanishlar olib bordi, yuksak va tengsiz asarlar yaratdi. Navoiyning bu xizmatlari ko'plab zamondosh ijodkor va adabiyotshunoslari tomonidan olqishlandi. Alisher Navoiy asrlar davomida dunyo va turkiy xalqlar nigohida bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бабаджанов Б. М., Коматцу Х. Журнал «Haqiqat» как зеркало религиозного аспекта в идеологии джадидов (русский) // TIAS Central Eurasian Research Series. — 2007. — Andoza:Бсокр. — ISBN 978-4-904039-02-1.
2. Borovkov A. K., Alisher Navoi kak osnovopolojnik uzbekskogo literaturnogo yazika. – Sb.: „Alisher Navoi“, M-L., 1948;
3. Щcherbak A. M., Grammatika starouzbekskogo yazika, M-L., 1962;
4. G. Roziqova. Mahmud Koshg'ariy “Devoni lug'ati turk” asridagi ot leksemalarining semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari. Dissr. –Farg'ona, 2021.
5. Z. Xolmonova. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi. Dissr. –Toshkent, 2009.
6. O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1981.
7. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (darslik). –Toshkent. Univerasitet, 2006.
8. Sh. Rahamtullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. –Toshkent. “Universitet”, 2009. –B.122



9. Yuldosheva N.E. On methods of research of uzbek language syntax// Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue). ISSN 2319-4979. 2021. № 26. - P. 3913-3918.
10. Yuldosheva, N., & Ergasheva, R. (2020). Research Of Terminology And Aviation Terminology. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN–2689-100x) Published: August, 25, 312-317.
11. ЮЛДОШЕВА, Н. (2022). Содда гап қолиплари воқеланишига таъсир қилувчи акцентуатив омиллар. О „ЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ХАВАРЛАРИ, 1(3).
12. Юлдошева, Н. Э., & Мавланова, Н. Т. (2023). СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 556-564.
13. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultative structures. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6, 291-294.
14. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. ILMIY XAVARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
15. Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
16. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
17. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.